



## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

**Shayimova Nigora Baxtiyorovna**

*Qarshi xalqaro innovatsion universiteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida inson resurslarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari va ularning samaradorligini tahlil qilingan. Maqolada strategik boshqaruv, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, motivatsion mexanizmlar hamda raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimining ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** inson resurslari, inson resurslarini boshqarish, umumiy o'rta ta'lim, strategik boshqaruv, kompetensiyaviy yondashuv, motivatsiya, raqamli texnologiyalar, boshqaruv samaradorligi.

**Abstract.** This article analyzes modern approaches to human resource management in general secondary schools and their effectiveness. The article covers issues of strategic management, competency-based approach, motivational mechanisms, and improving the management system based on digital technologies. It also reveals the importance of a balanced scorecard in human resource management.

**Keywords:** human resources, human resource management, general secondary education, strategic management, competency-based approach, motivation, digital technologies, management effectiveness.

**Аннотация.** В данной статье анализируются современные подходы к управлению человеческими ресурсами в общеобразовательных средних школах и их эффективность. Рассматриваются вопросы стратегического управления, компетентностного подхода, мотивационных механизмов и совершенствования системы управления на основе цифровых технологий. Также раскрывается важность сбалансированной системы показателей в управлении человеческими ресурсами.

**Ключевые слова:** человеческие ресурсы, управление человеческими ресурсами, общеобразовательная средняя школа, стратегическое управление, компетентностный подход, мотивация, цифровые технологии, эффективность управления.

Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagog va boshqaruv xodimlarining salohiyatini samarali boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim sifati ko'p



jihatdan aynan inson resurslarining malakasi, motivatsiyasi hamda ularni boshqarishning to'g'ri tashkil etilgan tizimiga bog'liqdir.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar inson resurslarini boshqarishga nisbatan yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, an'anaviy ma'muriy boshqaruvdan strategik va innovatsion boshqaruv modeliga o'tish, pedagog xodimlarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatini baholashning shaffof mexanizmlarini joriy etish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari – kompetensiyaga asoslangan boshqaruv, motivatsion tizimlar, liderlik va jamoaviy boshqaruv tamoyillarining amaliyotga tatbiqi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida inson resurslarini boshqarish masalasi so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, mazkur sohada turli yondashuv va konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu mavzuni chuqur o'rganishda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, A. S. Kozakevich tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Muallif ta'lim tizimida boshqaruv jarayoni nafaqat tashkiliy, balki psixologik va ijtimoiy omillar bilan ham chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, pedagog xodimlarning kasbiy rivojlanishi va ularning motivatsiyasini oshirish boshqaruv samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi [1].

Mosuetza P. M. tadqiqotida esa maktablar faoliyatini takomillashtirishda inson resurslarini samarali boshqarish muhim vosita sifatida qaraladi. Muallif inson resurslarini boshqarishda strategik rejalashtirish, xodimlarni rivojlantirish va ularning faoliyatini baholash tizimini yo'lga qo'yish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkinligini asoslab beradi [2]. Ushbu yondashuv ta'lim muassasalarida boshqaruvni tizimli tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Siddikov A. A. o'z ilmiy ishida inson resurslarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilib, raqamli texnologiyalar va innovatsion boshqaruv usullarining ahamiyatini alohida qayd etadi. Muallif kompetensiyaga asoslangan boshqaruv, samaradorlikni baholashning yangi mexanizmlari hamda raqamli platformalardan foydalanish orqali boshqaruv jarayonini optimallashtirish mumkinligini ta'kidlaydi [3]. Bu esa ta'lim tizimida zamonaviy boshqaruv vositalarini joriy etish zaruratini ko'rsatadi.

Jumanova G. tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari ochib berilgan. Muallif ushbu yondashuv orqali boshqaruv samaradorligini kompleks baholash, strategik maqsadlar va amaliy natijalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mumkinligini asoslaydi [4]. Ayniqsa,





ta'lim sifatini oshirishda ko'rsatkichlar tizimining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, inson resurslarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar – strategik boshqaruv, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, motivatsion mexanizmlar hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish – ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ayrim amaliy jihatlar, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari sharoitida ushbu yondashuvlarni kompleks joriy etish masalalari yetarlicha yoritilmagan. Bu esa mazkur yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ushbu tizimni samarali tashkil etish nafaqat pedagog xodimlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, balki ta'lim jarayonining umumiy natijadorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli inson resurslarini boshqarishda an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, zamonaviy, innovatsion va strategik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Avvalo, strategik boshqaruv yondashuvi inson resurslarini boshqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuvda pedagog kadrlar bilan ishlash uzoq muddatli maqsadlar asosida rejalashtiriladi, ularning kasbiy rivojlanishi tizimli yo'lga qo'yiladi hamda maktabning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtiriladi. Strategik boshqaruv orqali kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish, ularni to'g'ri joylashtirish va rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Ikkinchi muhim yo'nalish – kompetensiyaga asoslangan boshqaruv hisoblanadi. Mazkur yondashuv pedagog xodimlarning bilim, ko'nikma va malakalarini kompleks baholash hamda rivojlantirishga qaratilgan. Kompetensiyaviy yondashuv orqali o'qituvchilarning individual imkoniyatlari aniqlanadi, ularning kuchli va zaif tomonlari tahlil qilinadi hamda shunga mos ravishda malaka oshirish jarayonlari tashkil etiladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy boshqaruvning yana bir muhim jihati – motivatsion mexanizmlarni samarali qo'llashdir. Pedagog xodimlarning mehnat faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash boshqaruv samaradorligini oshiradi. Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, kasbiy o'sish imkoniyatlarini yaratish, ijobiy psixologik muhitni shakllantirish orqali xodimlarning ish faoliyati samaradorligini oshirish mumkin.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish bugungi kun talabiga aylangan. Elektron platformalar orqali xodimlar faoliyatini monitoring qilish, ularning ish natijalarini baholash va tahlil qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Raqamli boshqaruv vositalari boshqaruv jarayonining



shaffofligini ta'minlaydi, qaror qabul qilishni tezlashtiradi va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi.

Bundan tashqari, muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish inson resurslarini boshqarishda samaradorlikni baholashning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu tizim orqali nafaqat moliyaviy natijalar, balki ta'lim sifati, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, ichki boshqaruv jarayonlari kabi ko'rsatkichlar ham kompleks ravishda baholanadi. Bu esa boshqaruv jarayonini har tomonlama tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi zamonaviy yondashuvlarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompleks tarzda joriy etish inson resurslaridan samarali foydalanish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayrim muammolar, xususan, boshqaruv tizimining yetarli darajada raqamlashtirilmaganligi, zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishda metodik ta'minotning yetishmasligi kabi holatlar ham kuzatilmoqda.

Shu bois, inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini keng joriy etish, pedagog kadrlarni rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz ta'lim tizimini yo'lga qo'yish hamda boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Mazkur chora-tadbirlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv samaradorligini oshirish va raqobatbardosh ta'lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Козакевич А. С. Особенности управления человеческими ресурсами в закладах освіти // Ринкова економіка: сучасна теорія і практика управління. – 2020. – Т. 19, №2 (45). – С. 234–240.
2. Mosuetsa P. M. Improving schools through effective human resource management: mini-dissertation. – Johannesburg: University of Johannesburg, 2006.
3. Siddikov A. A. Inson resurslarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar // Raqamli iqtisodiyot. – 2025. – №13. – B. 1999–2003
4. Jumanova G. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari // Maktabgacha va maktab ta'limi. – 2026. – №4(5). – B. 131–135.

